



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№ 10



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 611 sahifa.

2025-yil, 15-oktyabr

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate

Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor

Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor

Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor

Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)

Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)

Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor

Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer

Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor

Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)

Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE

Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

QAYTA TIKLANUVCHI YASHIL ENERGIYA: BARCHA UCHUN MUHIM MASALA.....	13
Muxiddin Kalonov	
MOLIYAVIY INNOVATSIYALAR: IQTISODIY MOHIYATI, QO‘LLANILISHI VA RIVOJLANISHI.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAVDO KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STATISTIK TAHLIL USULLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	24
Sabirova Oysuluv Shonazarovna	
KORXONANING MEBEL MAXSULOTLARI BOZORIDAGI O‘RNINI KENGAYTIRISH USULLARI	30
Musayeva Shoira Azimovna	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA KO‘RSATKICHLARI TIZIMINING FUNKSIONAL JIHATI.....	35
Alabayev Sobitxon	
MAMLAKATIMIZDA MAHSULOTLARNING MUVOFIQLIGINI BAHOLASH AMALIYOTI.....	40
Zakirov Ansabxon Akaidinovich	
ПЕСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	48
Саидахмедова Аида Мирзаевна	
KORXONALAR FAOLIYATIDA DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNI BOSHQARISH	55
Mirzayev Ozod Furkatovich	
AHOLI PUL DAROMADLARI VA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH KO‘RSATKICHLARI O‘RTASIDAGI EKONOMETRIK TAHLIL.....	59
Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li	
BUDJET RESURSLARI SHAKLLANISHIDA HUDUDNING SOLIQ SALOHİYATINI OSHIRISH VA MOLIYAVIY BARQARORLIK.....	64
Yuldashev Adhamjon Axadjonovich	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY RIVOJLANISHI TUSHUNCHASIGA NAZARIY YONDASHUVLAR.....	69
Muydinov Xusniddin Nuriddin o‘g‘li	
МЕТОДИКА УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ ПОТОКАМИ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА	73
Минутдинова Лилия Тагировна, Машарипов Озод Алимович	
ГАРМОНИЗАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТАНДАРТОВ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН В СООТВЕТСТВИИ С МСФО	78
Абдужалилова Дилноз Абдусаттаровна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA SMART TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI.....	84
Sobirjonov Muxiddin Toxirjon o‘g‘li	
TO‘LOVGA QOBILIYATSIZLIK HOLATIDAGI KORXONALARDA TUGATISH BALANSINI TUZISH.....	90
Nabiyev Gofurjon Nosirjon o‘g‘li	
O‘ZBEKISTON SANOATINING “YASHIL” IQTISODIYOTGA O‘TAYOTGANLIGI: IMKONIYATLAR VA CHEKLOVLAR	96
Habibullayev Oybek Asliddin o‘g‘li	
YASHIL IQTISODIYOT KONTSEPTSIYASINING EVOLYUTSIYASI VA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR.....	102
Allayarov Suxrob Rustamovich	
O‘ZBEKISTONDA TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI CHET EL INVESTITSIYALARINING MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI	107
Raxmatov Adxam Itolmasovich, Boynazarova Matluba Xatamovna	



HUDUDIY IJTIMOY TENGLIK VA KAMBAG'ALLIKNI YUMSHATISHDA MEHNAT RESURSLARI OMILLARI.....	114
Durumov Temur G'olibovich	
TRANSPORT TARMOG'I VA MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY TARMOQLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNI MODELASHTIRISH (SURXANDARYO VILOYATI MISOLIDA)	121
Turayev Baxtiyor Ergashevich, Aymatov Sirojiddin To'raqul o'g'li	
РОЛЬ ЭНЕРГЕТИКИ В ФОРМИРОВАНИИ УСТОЙЧИВОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	134
Нигматуллаева Гулчехра Нуруллаевна	
O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI VA UNDA SIFAT MENEJMENTINING ROLI.....	139
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA'RIDAN FOYDALANUVCHILARGA SOLIQ SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	145
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TURIZM INDUSTRIYASIDA INNOVATSION BIZNES-MODELLAR.....	151
Shaxinabonu Choriyeva	
AVTOTRANSPORT – EKSPEDITSIYA XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING KONTSEPSIYASI.....	157
Ergasheva Mukhabbat Abdusamatovna	
“YASHIL” ENERGIYA ISHLAB CHIQRUVCHI KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	163
Toshemirov To'liqin Toirjonovich	
DAVLAT IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING ROLI VA UNI KUCHAYTIRISH MEKANIZMLARI.....	166
O. Nurmuradov	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI BANK TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSLARI	171
Meyliqulov Shaxboz Xolmamat o'g'li	
СВЯЗНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ И РЕГИОНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	176
Ташматов Гайрат Ровшанович, Содиков Авазбек Мадаминович	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI TURIZM SOHASINI RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	183
Zarikeyeva Miyasar Maratovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH TENDENSIYASI.....	187
Saidrahmatova Zuhraxon Saidazim qizi	
O'ZBEKISTON KONCHILIK SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSION JARAYONLARNI BOSHQARISH VA INNOVATSION XAVFLARNI KAMAYTIRISH STRATEGIYALARI	192
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
O'ZBEKISTONDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI.....	196
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
PAHTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARIDA XOMASHYO TA'MINOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING XORIJ DAVLATLAR TAJRIBASI.....	201
Zakirov Abduazim Abdurashidovich	
НОВЫЙ ЭТАП ПРИМЕНЕНИЯ РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ В ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	206
Махкамов Ибраим	
O'ZBEKISTONDA SUG'URTA BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI.....	213
Xushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o'g'li	
GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOT NAZARIYASI.....	217
Mo'ydinov Xurshidbek Abdullayevich	
DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI	221
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	



BARQAROR IQTISODIY O‘SHISHGA YERISHISHDA SUN‘IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO‘LLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH (XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI MISOLIDA)	227
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ЕГО РОЛЬ В УПРАВЛЕНИИ РИСКАМИ В БИЗНЕСЕ.....	233
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURLARNI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA ULARNING MILLIY SOLIQ TIZIMIDA QO‘LLASH MASALALARI	240
Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich	
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI UCHUN QO‘LLANILAYOTGAN SOLIQQA TORTISH MEKANIZMLARI	246
Akbarov Akramjon Ibragimzhonovich	
TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA “YASHIL” MARKETINGNI JORIY ETISHNING DOLZARB JIHATLARI	250
Bazarova Fayyoza Tuxtamurodovna	
INSON KAPITALI VA IQTISODIYOTNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI.....	255
Muzaffar Raximov	
UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIGINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	259
Odamboyev Oybek Ravshanbek o‘g‘li	
INTERNATIONAL ORGANIZATIONS’ APPROACHES TO ATTRACTING INVESTMENT IN HUMAN CAPITAL	268
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI.....	273
Vohobov Hikmatillo Ma‘mirjon o‘g‘li	
ФОРСАЙТ И ЭКОНОМИЧНЫЕ ИННОВАЦИИ КАК ДРАЙВЕРЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ТОРГОВЛИ САМАРКАНДА	280
Tohirova Gullola Mirkamolovna	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI BOSHQARISHDA KASB-HUNAR TA‘LIMI BITIRUVCHILARINING O‘RNI	287
Toshpulatov Sherzod Xaydarkulovich	
DIGITAL TECHNOLOGIES IN ECOTOURISM: INNOVATIVE STRATEGIES FOR ADVANCING GREEN TOURISM.....	292
Barno Erkayeva	
AGROTURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	296
Baymuradova Iroda Shermamatovna, Mardonova Zarifa Numonjonovna	
DAVLAT BUDJET NAZORATI TIZIMINI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI	301
B.Sh.Mirzayev	
YOSHLAR BANDLIGIDA KO‘NIKMALAR NOMUTANOSIBLIGI MUAMMOLARI VA YECHIMLARI.....	307
Rahmatxo‘jayev Axrorxo‘ja Akmal o‘g‘li	
TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHİYATINI TAHLIL QILISH VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI BAHOLASH.....	311
Oqboyev Alisher Rasuljanovich	
РЕИНЖИНИРИНГ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ И ИХ РОЛЬ В РАЗВИТИИ БАНКОВСКОГО БИЗНЕСА.....	317
Рахимходжаева Нодира Саидахраловна	
QISHLOQ XO‘JALIGI TA‘MINOT ZANJIRI JARAYONLARINING HOZIRGI HOLATINI TAHLIL QILISH.....	323
Ermonov Farrux	
O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI SHAKILLANTIRISH JARAYONIDA MOLIVAVIY NAZORATNI INNOVATSION TA‘LIM YO‘NALISHLARINI YO‘LGA QO‘YISH ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	329
Turg‘unov Bahtiyor Nuriddinovich	



MARKAZIY OSIYODA SUV RESURSLARINI BOSHQARISH VA HAMKORLIKNING DOLZARB MASALALARI	334
Amanbaev Amanali Orazbaevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI TURDAGI LOGISTIKA XIZMATLARINING USLUBIY ASOSLARI.....	338
Z. Teshayev	
O'ZBEKISTON AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI SOHASINING AMALDAGI HOLATINI TAHLIL QILISH.....	343
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
KORPORATIV BOSHQARUVDA LEADERSHIP 4.0 TAMOYILLARINI JORIY ETISH SAMARADORLIKNI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	349
Ismailov Allayor Rashidovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH MASALALARI.....	355
Yusupov Farxod Adamboyevich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISHNI USTUVOR YO'NALISHLARI	359
Abdullaeva Nilufar Javdat qizi	
MINTAQADA SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING SOLISHTIRMA EKONOMETRIK MODELLARI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)	363
Saatmurotov Shohrux Zafar o'g'li	
O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR	369
Abdurazaqov Jasur Abdunasimovich	
RAQAMLI PLATFORMALAR YORDAMIDA NORASMIY VA YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHNING QO'SHIMCHA IMKONIYATLARI TO'G'RSIDA.....	374
Nasrullayev Hikmatullo Habibulloyevich	
O'ZBEKISTONDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH MAQSADIDA "XIZMATLAR IPOTEKASI" MOLIYAVIY INSTRUMENTLARINI AMALIYOTGA JORIY QILISH MASALALARI	379
Uskenbayeva Dilnoza Boxodir qizi	
ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ КАПЕЛЬНОГО ОРОШЕНИЯ ПРИ ВОЗДЕЛЫВАНИИ ЛУКА В ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ.....	384
Суюнов Шохзодбек Мурод угли	
XORIJY DAVLATLAR SANOAT IQTISODIYOTIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH TAJRIBASI (YAPONIYA, KOREYA VA GERMANIYA MISOLIDA)	389
Mansurova Sayyora Baxtiyor Kizi	
KORXONALARDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBGA OLIHDA XORIY TAJRIBASINI QO'LLASH	395
Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o'g'li	
PECULIARITIES OF THE IRRIGATION WATER DELIVERY PAYMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	399
Muminov Sherzod Kholmiraevich	
DIGITALIZATION OF AGRICULTURAL PRODUCTS FOR EXPORT	404
Azimov R.B.	
AHOLI JON BOSHIGA UMUMIY DAROMADLAR HAJMINI TREND MODELLAR ASOSIDA PROGNOZLASH	409
Xolto'rayev Islom Ilhomovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI BANDLIK SHAKLLARI	416
Sayipov Begzod Rahimovich	
TIJORAT BANKLARINING YANGI DAVR SHAROITIDA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASH USULLARI VA INDIKATORLARI	422
Sadikov Iskandar Gayratovich	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINING SAMARADORLIGINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	427
Ibrohimov Davronbek Muhammadi o'g'li	



MAHALLIY BUDJET SOLIQLI DAROMADLARI BAZASI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQLAR TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	433
<i>Isoqov Zafarjon Zokirjonovich</i>	
TOSHKENT SHAHRIDAGI YIRIK SOLIQ TO'LOVCHILARNING SOLIQ QARZDORLIGI TAHLILI	438
<i>Soipov Boburmirzo Nosirjon o'g'li</i>	
РОЛЬ ЖИЛИЩНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В СИСТЕМЕ КОМПЛЕКСНОГО РАЗВИТИЯ ТЕРРИТОРИЙ МЕЗОУРОВНЯ.....	446
<i>Далиев Ахтам Шарафудинович</i>	
TO'QIMACHILIK SANOAT KORXONALARIDA INSON RESURLARINI BOSHQARISHDA XORIJ TAJRIBALARINING ZARURLIGI.....	454
<i>Abdullayev Dostonbek G'ofurjon o'g'li</i>	
TURISTIK KLASTERLARNING NAZARIY ASOSLARI VA ULARNING HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI	458
<i>Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li</i>	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RESURS TA'MINOTI BOSHQARUVINING NAZARIY KONSEPSIYALARI VA MODELLARI.....	462
<i>Arziqulova Oybar chin Eshquvat qizi</i>	
XIZMATLAR SEKTORIDA RAQAMLI INNOVATSIYALAR VA MIJOZLAR EHTIYOJLARINI QONDIRISH MEKANIZMLARI	467
<i>Xudoyorov Lochinbek Bahromovich</i>	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ ПОДГОТОВКИ КАДРОВ В РАЗВИТИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА.....	472
<i>Базаров Бердымурад Улугмуродович, Атавуллаева Саида Джумабекмуродовна</i>	
TURIZM SOHASIDA KADRLAR SALOHİYATINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMI.....	478
<i>Ho'jaqulov Bobur Rustam o'g'li</i>	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLATNING RO'LI	483
<i>Nabiyeva Muxabbat Djabirxanovna</i>	
"HOW GREEN INVESETMENTS CAN EFFECT ON ECONOMIC GROWTH IN DEVELOPING COUNTRIES"	485
<i>Farangiz Ma'rufjonovna Pirmatova</i>	
TIJORAT BANKLARIDA UZOQ MUDDATLI RESURLAR MANBALARI VA ULARNING HAJMINI OSHIRISHNING ZARURIYATI.....	493
<i>Abduraxmonov Akmal Nurmamat o'g'li</i>	
GLOBAL BOSHQARUV VA BARQAROR RIVOJLANISHDA YASHIL TEXNOLOGIYALARNING ROLI	498
<i>M.Sh. Tolipov</i>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	504
<i>Буранбаева Шоира Рустамовна</i>	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA PIYOZ YETISHTIRISHDA TOMCHILATIB SUG'ORISHNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	508
<i>Suyunov Shohzodbek Murod o'g'li</i>	
YENGIL SANOAT KORXONALARINING RIVOJLANISHIGA BOSHQARUV MADANIYATIDAN FOYDALANISHNING TA'SIRI.....	513
<i>Aknazarova Zebiniso Bagdadovna</i>	
ISHLAB CHIQRISHNI DIVERSIFIKATSIYALASH SHAROITIDA KORPORATIV BOSHQARUVNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZM SAMARADORLIGINI ANIQLASH USULLARI	518
<i>Qurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich</i>	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH VA JOYLASHTIRISHNING IQTISODIY VA TASHKILIY ASOSLARI	524
<i>Salimov Burxon Abubakirovich</i>	
"YASHIL" IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH VA UNDA ENERGIYADAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	530
<i>Berdiyeva Aziza G'anisher qizi</i>	



SIRKULAR IQTISODIYOTDAN KORXONA VA TADBIRKORLAR MANFAATLARI	535
Sodikov Zokir Rustamovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK SOHASIDA ME'YORIY-HUQUQIY BAZANI ISHLAB CHIQISH.....	541
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Ubaydullayev Toxirjon Abdullajanovich	
MINTAQA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI CHAKANA SAVDOSIDA SHADOW WAREHOUSE MODELIGA ASOSLANGAN YETKAZIB BERISH TIZIMINI JORIY QILISH.....	548
Ibrayimova Dilnoza Abdisherpovna	
XIZMATLAR SAVDOSI SOHASIDA O'ZBEKISTONNING XALQARO HAMKORLIK IMKONIYATLARI	555
Qodirjonov A.M.	
TO'QIMACHILIK SANOATINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH KONSEPSIYASINI SHAKLLANTIRISH USLUBIYOTI.....	559
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
ГЛОБАЛЬНЫЕ ТРЕНДЫ СМАРТ-ТУРИЗМА И ИХ ПРИМЕНИМОСТЬ К КУЛЬТУРНОМУ НАСЛЕДИЮ УЗБЕКИСТАНА.....	564
Салихбаев Нурсултон Равшанович	
IJTIMOIIY NIHOYA TIZIMI VA IJTIMOIIY TIBBIY XIZMATLAR O'ZARO BOG'LIQLIGINING NAZARIY ASOSLARI.....	572
Shanazarov Farrux Shodiyorovich	
ТЕХНИКО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ОБОСНОВАНИЕ РАЗРАБОТКИ МОБИЛЬНОГО ПРИЛОЖЕНИЯ JOB VARAKA ДЛЯ РЫНКА ТРУДА УЗБЕКИСТАНА.....	577
Еримбетова Улбосын Маратовна	
TASHQI SAVDO VA INVESTITSIYALAR TAHLILI HAMDA ULARNING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI.....	582
Jalolov Bekzod Sherzod o'g'li	
“O'ZBEKISTONDA KICHIK VA O'RTA BIZNESLAR UCHUN SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARNI TAHLIL QILISH VA RAQAMLI YECHIMLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH”	586
Azamatjon Mardayev Abdusamat o'g'li	
FARMATSEVIKA MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	591
Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna	
O'ZBEKISTONDA INNOVASION TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA KADRLAR TAYYORLASH MENEJMENTINING AMAL QILISH USULLARI VA TURLARI	596
Ergashev To'lqin Shokirovich	
HUDUDIIY IQTISODIYOTNI RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	602
Ibragimov Baxrom Baxodirovich	
ISLOMIY MOLIYA INSTRUMENTLARINI JORIY ETISH ORQALI O'ZBEKISTONDA MOLIYA BOZORINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	606
Xodjayev Aziz Shovkatovich	



ISLOMIY MOLIYA INSTRUMENTLARINI JORIY ETISH ORQALI O'ZBEKISTONDA MOLIYA BOZORINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI

Xodjayev Aziz Shovkatovich

Mustaqil tadqiqotchi

Email: azikhodjaev9@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston moliya bozorini diversifikatsiya qilish jarayonida islomiy moliya instrumentlarini joriy etishning iqtisodiy va institutsional ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda islomiy moliya tizimining adolat, riskni teng taqsimlash va real aktivlarga asoslanish tamoyillari milliy moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga qanday xizmat qilishi yoritilgan. Xalqaro tajribalar asosida O'zbekiston uchun sukuk, murabaha, musharaka kabi instrumentlarni joriy etishning istiqbollari baholangan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, islomiy moliyaning bosqichma-bosqich rivojlanishi mamlakatda investitsion muhitni kengaytirish, moliyaviy inklyuziyani oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishga erishish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: islomiy moliya, sukuk, moliya bozori, diversifikatsiya, barqaror rivojlanish, investitsiyalar, shariat tamoyillari.

Abstract. The article analyzes the economic and institutional significance of introducing Islamic financial instruments in diversifying Uzbekistan's financial market. It highlights how the principles of justice, risk sharing, and asset-based financing within Islamic finance contribute to strengthening national financial stability. Based on international experience, the prospects of introducing instruments such as sukuk, murabaha, and musharaka in Uzbekistan are evaluated. The findings suggest that the gradual development of Islamic finance can expand investment opportunities, enhance financial inclusion, and support sustainable economic growth in the country.

Key words: Islamic finance, sukuk, financial market, diversification, sustainable development, investments, Sharia principles.

Аннотация. В статье рассматривается экономическое и институциональное значение внедрения инструментов исламских финансов в процессе диверсификации финансового рынка Узбекистана. Показано, как принципы справедливости, разделения рисков и обеспечение сделок реальными активами способствуют укреплению финансовой стабильности страны. На основе международного опыта оценены перспективы внедрения таких инструментов, как сукук, мурабаха и мушарака. Результаты исследования показывают, что постепенное развитие исламских финансов позволит расширить инвестиционные возможности, повысить уровень финансовой инклюзии и обеспечить устойчивый экономический рост в Узбекистане.

Ключевые слова: исламские финансы, сукук, финансовый рынок, диверсификация, устойчивое развитие, инвестиции, принципы шариата.

KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyoti so'nggi yillarda jadal rivojlanish bosqichiga kirib, moliya tizimini diversifikatsiya qilish va global integratsiyani chuqurlashtirish yo'nalishida muhim islohotlarni amalga oshirmoqda. Ushbu jarayonda islomiy moliya instrumentlarini joriy etish mamlakat moliya bozorining barqarorligini mustahkamlash, investitsion muhitni kengaytirish hamda aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini oshirishda strategik ahamiyat kasb etadi. Islomiy moliya tizimi o'zining adolat, halollik va risklarni teng taqsimlash tamoyillariga asoslanganligi sababli, u an'anaviy moliya tizimiga muqobil barqaror mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston hukumati tomonidan xalqaro moliya institutlari, xususan, Islom taraqqiyot banki va boshqa moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlikda islomiy moliya infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha qator tashabbuslar ilgari surilmoqda. Sukuk, murabaha, ijara, musharaka kabi instrumentlarni milliy moliya tizimiga bosqichma-bosqich joriy etish orqali iqtisodiyotga uzoq muddatli investitsiyalarni jalb qilish, kichik biznesni



moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish hamda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash kutilmoqda. Ushbu yo'nalish mamlakatda moliyaviy inklyuziyani oshirish, aholining diniy e'tiqodiga mos moliyaviy mahsulotlar bilan ta'minlash va xalqaro islomiy kapital bozorlariga chiqish imkonini beradi.

Shu nuqtayi nazardan, islomiy moliya instrumentlarini joriy etish O'zbekiston moliya bozorini diversifikatsiya qilishning asosiy strategik yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Bu nafaqat iqtisodiyotda yangi moliyaviy mexanizmlarni shakllantiradi, balki milliy moliya tizimining barqarorligini mustahkamlash, moliya bozorining xalqaro raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiy o'sishning yangi drayverlarini yaratishda muhim rol o'ynaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Islomiy moliya nazariyasi va amaliyotiga oid adabiyotlar an'anaviy moliyaviy instrumentlarga muqobil sifatida risklarni real iqtisodiy faoliyat bilan bog'lash, adolat va shaffoflik tamoyillarini ta'minlash orqali bozorni diversifikatsiyalash imkoniyatlarini keng yoritadi. Zamir Iqbal va Abbas Mirakhor 2011-yilda chop etilgan keng qamrovli ishida islomiy moliya tamoyillari, bank mahsulotlari hamda kapital bozorida instrumentlar — shu jumladan sukuklar — qanday qilib uzoq muddatli investitsiyalarni jalb etishi va moliyaviy xizmatlarga yangi qatlamlarni jalb qilishi mumkinligini amaliy misollar bilan tushuntiradi. Mufti Muhammad Taqi Usmani 2002-yilda yozgan asarlarida islomiy moliya instrumentlarini shariat mezonlariga muvofiq tarzda strukturaviy jihatdan qanday shakllantirish mumkinligini izohlaydi. U sukuk, musharaka va ijara kabi vositalarning qonuniy hamda fikriy asoslarini ta'kidlaydi. Ushbu nazariy-ijtimoiy zamin O'zbekiston sharoitida mahalliy huquqiy va moliyaviy infratuzilmani moslashtirishda muhim manba hisoblanadi.

M. Kabir Hassan va hamkorlarining kapital bozorlariga bag'ishlangan ishlari islomiy kapital bozorining mahsulotlari, investor talabi va strukturalarini tahlil qilib, sukuk hamda boshqa instrumentlarning likvidligi va investor segmentlarini kengaytirish imkoniyatlarini ilmiy asosda ko'rsatadi. Bu esa O'zbekiston kontekstida bozorning diversifikatsiyasi nuqtayi nazaridan bevosita amaliy yordam beradi. Shuningdek, Bloomsbury tomonidan nashr etilgan Islamic Finance: Instruments and Markets to'plami islomiy moliya instrumentlarining turli bozorlardagi amaliy qo'llanishini batafsil yoritadi. Unda sukuklar, takaful va boshqa mahsulotlarning regulyatorlik hamda buxgalteriya (accounting) muammolari ko'rsatilgan bo'lib, bu manbalar sukuk bozorini shakllantirish va standartlashtirish strategiyalarini ishlab chiqishda manbaviy asos bo'la oladi.

Xalqaro moliya tashkilotlari ham islomiy moliyaning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'sirini o'rgangan. Xalqaro Valyuta Fondi tomonidan berilgan sharhlarda islomiy banklar hamda islomiy instrumentlar tizimining moliyaviy barqarorlik va iste'molchi himoyasi nuqtayi nazaridan asosiy tavsiyalari keltirilgan. Ushbu tavsiyalar mamlakat siyosat yurituvchilariga tartibga solish va monitoring mexanizmlarini loyihalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon banki va boshqa institutsional tadqiqotlar sukuk bozorlari rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun yuridik standartlar, soliqqa oid me'yorlar va hisob-kitob mexanizmlarining moslashuvini zarur deb hisoblaydi. Shu bilan birga, O'zbekiston singari yangi bozorlar uchun sukuklar orqali jamoat hamda xususiy infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlarini amaliy yo'lga qo'yishni tavsiya etadi.

Empirik tadqiqotlar islomiy banklarning ayrim holatlarda ruxsat etilgan risk-bo'lish tamoyili orqali iqtisodiy tebranishlarga nisbatan chidamliroq bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, adabiyotlarda regulyatorlik, shariat konsensusini ta'minlash va xalqaro standartlarga moslashish masalalarining ilgari surilishi ularning muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi omil ekanligi takroran ta'kidlanadi. Global tajribalar — Malayziya, Saudiya Arabistoni va Birlashgan Arab Amirliklari kabi mamlakatlardagi sukuk hamda islomiy banklar faoliyati — O'zbekiston uchun amaliy adaptatsiya yo'nalishlarini belgilashda foydali model va saboq bo'la oladi.

Umuman olganda, adabiyotlar islomiy moliya instrumentlarini joriy etish orqali moliya bozorini diversifikatsiyalashning nafaqat texnik, balki institutsional va huquqiy sharoitlarini ham batafsil yoritadi. Shuningdek, sukuk, ijara va musharaka kabi vositalarni milliy bozorga moslashtirish orqali investitsiyalarni jalb etish, moliyaviy inklyuziyani kengaytirish hamda ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini amaliy jihatdan asoslaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda islomiy moliya instrumentlarini joriy etish orqali moliya bozorini diversifikatsiyalash imkoniyatlarini baholash maqsadida xalqaro moliya institutlari hisobotlari, O'zbekiston Markaziy banki statistik ma'lumotlari hamda ilmiy manbalar tahlil qilindi. Ma'lumotlar qiyosiy, strukturaviy va empirik tahlil usullari yordamida qayta ishlanib, xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda moliya bozorini diversifikatsiya qilish jarayonida islomiy moliya instrumentlarini joriy etish mamlakatning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash, investitsion muhitni kengaytirish va aholining moliyaviy



xizmatlardan foydalanish imkoniyatini oshirishda muhim strategik yo'nalish sifatida qaralmoqda. So'nggi yillarda global moliya tizimi iqtisodiy inqirozlar, likvidlik muammolari va investitsion xavfning ortishi sharoitida muqobil moliyaviy mexanizmlar izlashga ehtiyoj sezdi. Shu jarayonda shariat tamoyillariga asoslangan islomiy moliya tizimi o'zining adolat, riskni teng taqsimlash, real aktivlarga asoslanish va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillari orqali muqobil, barqaror hamda inklyuziv model sifatida e'tirof etilmoqda.

Islomiy moliyaning asosiy farqi shundaki, u foiz (ribo)ga asoslanmagan, balki foyda va zarar taqsimoti (profit and loss sharing) mexanizmini qo'llaydi. Bu yondashuv real iqtisodiyot bilan moliya sektorini bir-biriga bog'laydi, spekulyativ operatsiyalarni cheklaydi va iqtisodiy faollikni oshirish orqali ishlab chiqarishning haqiqiy sektorini qo'llab-quvvatlaydi. O'zbekiston uchun bunday tizimning joriy etilishi nafaqat yangi moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar yaratilishiga, balki investitsion manbalarni diversifikatsiya qilishga, shu jumladan, Yaqin Sharq va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlaridagi islomiy kapital oqimini jalb etishga imkon beradi.

Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, islomiy moliya tizimi barqaror rivojlanayotgan davlatlarda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda sezilarli natijalar bergan. Masalan, Malayziya, Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari va Indoneziya singari mamlakatlar o'z moliya tizimlarida sukuk, murabaha, musharaka, mudaraba va ijara kabi instrumentlarni muvaffaqiyatli joriy etib, davlat infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda samarali mexanizmlar yaratgan. Malayziyada sukuk bozori global hajmning qariyb 60 foizini tashkil etadi, bu esa mamlakatni islomiy moliya markaziga aylantirgan (1-jadval).

1-jadval. Global islomiy moliya aktivlarining yillar kesimidagi dinamikasi (2020–2025-yillar)

Yil	Global islomiy moliya aktivlari (USD trillion)	Yillik o'sish (%)	Sukuk emissiyalari (USD milliard)	Islomiy bank aktivlari ulushi (%)	Asosiy izoh
2020	2,88	—	160	72,5	Pandemiya ta'siriga qaramay, sektor barqaror o'sishni saqlab qoldi; davlatlar ijtimoiy sukuklar emissiyasini boshladi.
2021	3,06	6,3	180	71,9	IFSB ma'lumotiga ko'ra, aktivlar hajmi 3 trillion dollardan oshdi; Islom taraqqiyot banki yangi barqaror moliya dasturlarini joriy qildi.
2022	3,25	6,2	195	71,4	Global iqtisodiy tiklanish davrida sukuk emissiyasi ortdi, islomiy fondlar hajmi 10 % ga kengaydi.
2023	3,38	4,0	210	70,8	ICD-LSEG hisobotida islomiy moliya aktivlari 3,4 trillion dollarga yaqinlashgani, sukuk bozori 850 milliard dollarga yetgani qayd etildi.
2024	3,88	14,9	230,4	71,6	Fintech Galaxy ma'lumotiga ko'ra, umumiy aktivlar 14,9 % o'sdi; yashil sukuklar emissiyasi kengaydi, barqaror moliya dasturlari faollashdi.
2025 (proqnoz)	4,50	16,0 (proqnoz)	260	70,5	LSEG va IMF prognozlariga ko'ra, 2025-yilda global hajm 4,5–4,9 trillion dollarga yetadi; raqamli islomiy banklar va "fintech sukuk" tarmoqlari o'sishda.

Jadvalda keltirilgan 2020–2025-yillar oralig'idagi global islomiy moliya sektorining statistik ma'lumotlari bu sohaning barqaror va izchil o'sish sur'atlariga ega ekanini ko'rsatadi. 2020-yilda pandemiya tufayli ko'plab iqtisodiyotlarda inqiroz yuz bergan bo'lsa-da, islomiy moliya aktivlari 2,88 trillion dollardan 2021-yilda 3,06 trillion dollarga oshgan. Bu holat sektorning real aktivlarga asoslanganligi, risklarni teng taqsimlash va spekulyativ operatsiyalarni cheklovchi mexanizmlar mavjudligi tufayli global moliyaviy inqirozlarga nisbatan bardoshlilikini isbotlaydi.

2022-yilda o'sish 6,2 foiz darajasida saqlanib, aktivlar hajmi 3,25 trillion dollarga yetdi. Shu davrda sukuk emissiyalari 195 milliard dollarga ko'tarilgan bo'lib, bu islomiy kapital bozorining tobora muhim o'ringa ega



bo'layotganini ko'rsatadi. Islomiy banklarning aktivlardagi ulushi 71,4 foizni tashkil etgani, bu segmentning yetakchi mavqeini saqlab qolayotganidan dalolat beradi. 2023-yilda aktivlar 3,38 trillion dollarga yetib, 4 foizlik barqaror o'sish qayd etilgan. Bu yilda sukuk hajmi 210 milliard dollarga chiqdi, bu esa davlat infratuzilma loyihalarini islomiy moliya vositalari orqali moliyalashtirishga bo'lgan qiziqish ortganini bildiradi.

2024-yilga kelib, global islomiy moliya aktivlari 14,9 foiz o'sish bilan 3,88 trillion dollarga yetgan. Bu o'sishning asosiy drayveri sifatida yashil sukuklar, ESG tamoyillarini o'z ichiga olgan investitsiyalar hamda raqamli islomiy moliyalashtirish platformalarining kengayishi qayd etiladi. Prognozlarga ko'ra, 2025-yilda sektor hajmi 4,5 trillion dollardan oshadi, bu esa 2020-yilga nisbatan qariyb 55 foiz umumiy o'sishni anglatadi.

Jadval shuni ko'rsatadiki, islomiy moliya sektori nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlayapti, balki global moliya tizimida diversifikatsiya va adolatli risk taqsimoti tamoyillarini mustahkamlamoqda. Sukuk, takaful va islomiy fondlarning o'sishi moliya tizimining yangi segmentlarini shakllantirib, ularni an'anaviy instrumentlarga kuchli muqobilga aylantirmoqda. Shu bois, 2020–2025-yillar davri islomiy moliyaning jahon moliya tizimida strategik o'sish bosqichi sifatida tarixda qoladi.

Islomiy moliyaning asosiy tamoyillari – shariatga muvofiqlik, adolat, shaffoflik va ijtimoiy javobgarlik – O'zbekistonning milliy iqtisodiy siyosati va "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasi bilan uyg'unlikda namoyon bo'ladi. Mamlakatda "Halol iqtisodiyot" va "Yashil iqtisodiyot" tushunchalari bilan uyg'un tarzda, islomiy moliya vositalarining joriy etilishi ekologik va ijtimoiy mas'uliyatni ta'minlovchi moliyaviy mexanizmlarni yaratish imkonini beradi. Masalan, "yashil sukuk" (green sukuk) loyihalari ekologik jihatdan barqaror infratuzilma, energiya tejankor texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini moliyalashtirish uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

O'zbekistonda islomiy moliyani rivojlantirishning institutsional bazasi shakllanib bormoqda. Islom taraqqiyot banki bilan hamkorlikda bir qator ijtimoiy va infratuzilma loyihalari moliyalashtirilmoqda. 2022-yildan boshlab mamlakatda islomiy bank faoliyatiga doir normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqila boshlandi, bu esa "Islomiy moliya to'g'risida"gi qonun loyihasini tayyorlash jarayonini tezlashtirdi. Shu bilan birga, xalqaro tajribadan kelib chiqib, shariat kengashlari faoliyatini yo'lga qo'yish, moliyaviy mahsulotlarni sertifikatlash tizimini yaratish va standartlashtirilgan regulyator muhitni shakllantirish zarurati mavjud.

Islomiy moliya instrumentlarini milliy moliya bozoriga tatbiq etish bir nechta darajalarda ijobiy natijalar beradi. Birinchidan, bu moliyaviy inklyuziyani kengaytiradi. Aholining bir qismi diniy sabablarga ko'ra an'anaviy bank xizmatlaridan foydalanmay kelgan. Islomiy banklar, mikromoliyalashtirish markazlari va takaful (islomiy sug'urta) tizimlari ushbu qatlamni moliyaviy tizimga jalb qiladi. Ikkinchidan, bu moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi, chunki islomiy moliya real aktivlarga tayanadi va riskni hamkorlik asosida bo'lishadi. Uchinchidan, bu investitsion oqimlarni ko'paytiradi, chunki islomiy kapital egalari – fondlar, suveren jamg'armalar va xususiy investorlar – shariatga muvofiq loyihalarga sarmoya kiritishni afzal ko'radi.

Islomiy moliya vositalari orqali diversifikatsiyalangan moliya bozori iqtisodiyotda raqobatni kuchaytiradi va innovatsiyalarni rag'batlantiradi. Sukuklar davlat obligatsiyalariga muqobil, barqaror instrument sifatida davlat qarz bozorini rivojlantirish imkonini beradi. Murabaha asosidagi tijorat bitimlari esa kichik va o'rta korxonalar uchun likvidlik manbai bo'lishi mumkin. Musharaka va mudaraba mexanizmlari hamkorlik asosidagi biznes loyihalarini moliyalashtirishda, ayniqsa, startap va ijtimoiy tadbirkorlik yo'nalishlarida samarali natijalar beradi.

Jahon tajribasidan kelib chiqib, O'zbekiston uchun eng istiqbolli yo'nalishlardan biri sukuk bozorini shakllantirishdir. Bu nafaqat davlat infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish, balki xususiy sektor uchun uzoq muddatli kapital jalb etish imkoniyatini yaratadi. Jahon banki va Islom taraqqiyot banki tahlillariga ko'ra, sukuklar iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda va budjet defitsitini moliyalashtirishda samarali vosita hisoblanadi. O'zbekiston hukumati bu yo'nalishda xalqaro hamkorlikni kengaytirish, investorlar uchun shaffof soliq va yuridik mexanizmlarni yaratish orqali sukuk emissiyasiga tayyorgarlik ko'rmoqda.

Bundan tashqari, islomiy moliya prinsiplari O'zbekistonda korporativ boshqaruv madaniyatini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Shariatga asoslangan biznes etikasi, risk menejmenti va hisobdorlik tamoyillari korporativ sektorning ishonchligini oshiradi. Islomiy moliya institutlari ijtimoiy mas'uliyatli investitsiyalarni (SRI) targ'ib qiladi, bu esa BMTning barqaror rivojlanish maqsadlariga (SDGs) mos keladi. Shu nuqtayi nazardan, islomiy moliya instrumentlarini joriy etish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik foyda keltiruvchi mexanizm sifatida qaraladi.

Islomiy moliya sohasida kadrlar tayyorlash, ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil etish va mahalliy mutaxassislarni xalqaro standartlarga muvofiq malaka oshirish ham zaruriy shartlardan biridir. Hozirda O'zbekiston Islom taraqqiyot banki bilan hamkorlikda "Islomiy moliya akademiyasi" tashkil etish ustida ish olib bormoqda. Bu tashabbus yangi avlod moliyaviy mutaxassislarini tayyorlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, islomiy moliya tizimini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish muhim omil bo'lib, "raqamli islomiy bank" va "fintech" yechimlari orqali masofaviy xizmatlarni kengaytirish mumkin. Bu O'zbekistonning "Digital Uzbekistan – 2030" strategiyasi bilan hamohang bo'lib, moliyaviy xizmatlarning kirish imkonini oshiradi va xarajatlarni kamaytiradi.



Umuman olganda, islomiy moliya instrumentlarini joriy etish orqali O'zbekiston moliya bozorini diversifikatsiya qilish nafaqat moliyaviy tizimning barqarorligini oshiradi, balki mamlakatning xalqaro moliya bozorlaridagi nufuzini mustahkamlaydi. Bu yo'nalish orqali iqtisodiyotga yangi kapital oqimini jalb qilish, infratuzilmani modernizatsiya qilish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va aholi farovonligini oshirishga erishish mumkin. Shuningdek, islomiy moliya tizimining asosiy qadriyatlari — adolat, halollik, hamkorlik va ijtimoiy mas'uliyat — O'zbekistonning iqtisodiy siyosatida barqaror va inklyuziv rivojlanish tamoyillarini yanada chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Shu bois, islomiy moliya instrumentlarini milliy moliya tizimiga integratsiya qilish mamlakat uchun strategik, uzoq muddatli iqtisodiy ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralishi zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Islomiy moliya instrumentlarini joriy etish O'zbekiston moliya bozorini diversifikatsiya qilish, iqtisodiyotda barqarorlik va inklyuzivlikni ta'minlash, shuningdek, xalqaro investitsion oqimlarni kengaytirish yo'lida muhim ahamiyat kasb etadi. Shariat tamoyillariga asoslangan moliyaviy mexanizmlar nafaqat moliyaviy operatsiyalarni real iqtisodiyot bilan bog'laydi, balki aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini oshirib, diniy e'tiqodga mos muqobil yechimlarni taqdim etadi. Islomiy moliya vositalarining joriy etilishi natijasida investitsiya muhitining jozibadorligi ortadi, kichik va o'rta biznes uchun yangi moliyalashtirish manbalari paydo bo'ladi hamda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish jarayonida moliya sektori ijtimoiy mas'uliyatli ishtirokchiga aylanadi.

Kelgusida islomiy moliya sohasini rivojlantirish uchun huquqiy va institutsional bazani yanada mustahkamlash, shariat kengashlari faoliyatini yo'lga qo'yish, moliyaviy mahsulotlarni sertifikatsiyalash tizimini yaratish hamda xalqaro standartlarga muvofiq regulyator mexanizmlarni shakllantirish zarur. Mahalliy banklar va moliyaviy institutlar uchun islomiy moliya bo'yicha maxsus ta'lim va malaka oshirish dasturlarini tashkil etish, raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish, sukuk bozorini rivojlantirish va yashil hamda ijtimoiy yo'naltirilgan islomiy moliya mahsulotlarini kengaytirish mamlakat moliya tizimini yangi bosqichga olib chiqadi. Shu yo'l bilan O'zbekiston xalqaro islomiy moliya maydonida faol ishtirokchi sifatida shakllanib, iqtisodiy o'sishning barqaror va adolatli modelini yaratish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zamir Iqbal; Abbas Mirakhor. An Introduction to Islamic Finance: Theory and Practice. – Singapore: John Wiley & Sons, 2011. – 370 p.
2. Mufti Muhammad Taqi Usmani. An Introduction to Islamic Finance. – The Hague: Kluwer Law International, 2002. – 210 p.
3. M. Kabir Hassan; Michael Mahlke. Islamic Capital Markets: Products and Strategies. – Hoboken: John Wiley & Sons, 2011. – 430 p.
4. Mahmoud A. El-Gamal. Islamic Finance: Law, Economics, and Practice. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – 272 p.
5. Rodney Wilson. The Development of Islamic Finance in the GCC. – London: London School of Economics, 2009. – 185 p.
6. International Monetary Fund. An Overview of Islamic Finance. – Washington D.C.: IMF Publications, 2015. – 112 p.
7. World Bank; Islamic Development Bank. Global Report on Islamic Finance: A Catalyst for Shared Prosperity? – Washington D.C.: World Bank Group, 2016. – 204 p.
8. Islamic Financial Services Board. Islamic Financial Services Industry Stability Report. – Kuala Lumpur: IFSB, 2023. – 180 p.
9. ICD-LSEG. Islamic Finance Development Report 2023: Embracing Change. – Jeddah: Islamic Corporation for the Development of the Private Sector, 2023. – 156 p.
10. Habib Ahmed. Islamic Banking and Financial Crisis: Reputation, Stability and Risks. – Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2016. – 344 p.
11. Hans Visser. Islamic Finance: Principles and Practice. – Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2019. – 320 p.
12. Zamir Iqbal; Abbas Mirakhor. Risk Sharing in Finance: The Islamic Finance Alternative. – Singapore: John Wiley & Sons, 2011. – 310 p.
13. Adeel Malik; Oliver Morrissey. Is Islamic Banking Different? Evidence on Financial Stability. – Oxford: Oxford Centre for Islamic Studies, 2010. – 95 p.
14. Nidal R. Sabri. Financial Markets and Institutions in the Arab Economy. – New York: Palgrave Macmillan, 2008. – 275 p.
15. M. Umer Chapra. The Future of Economics: An Islamic Perspective. – Leicester: The Islamic Foundation, 2000. – 332 p.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
